© 2026 International Conference on Multidisciplinary Sciences and Innovations . All Rights Reserved.

# O'ZBEKISTON TARIXI JADIDLAR MEROSI UCHIRILGAN QANOTLAR VA YETIM QOLGAN XOTIRA

**Saipova Nodira**
TMC Instituti talabasi Guruh: 24-02
DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.23495142

I.**Kirish**: Har bir millatning o'tmishida nafaqat shonli g'alabalar,balkim uzoq vaqt bitmaydigan og'ir jarohatlar xam boladi. O'zbekiston tarixi uchun ham XX asrning birinchi yarmi shunaqa fojiali davr bo'lgan.

1930-1950- yillardagi siyosiy qatog'onlar shunchaki ba'zi odamlarni jazolash emas edi. Butun bir xalqning o'zini dunyoqarashiga ega, erkin fikrlovchi, jamiyatni ortidan ergashtira oladigan ma'naviy yetakchilarni ildizi bilan yo'q qilishga bo'lganga shafqatsiz urinish edi. Abdulla Qodiriy , Cho'lpon, Fitrat va Munavvari qori kabi yuzlab marifatparvarlarimizni o'ldirilishi xalqimiz kelajagini o'n yillar davomida ortga surib yubordi.

Lekin fojia ko'lami faqat otilgan yoki surgun qilinganlar soni bilan o'lchab bo'lmaydi. Ularning ortida qolgan xonavayron oilalar, "sotqinning oilasi " degan tamg'a ostida azoblangan ayollar va otasiz o'sgan yetim bolalar turardi.Maqolamda men aynan ana shu insoniy fojiani hamda bu fojianing bugungi avlod xotirasidagi o'rnini ochib berishga harakat qildim.

II. **Millat ziyolilari fojiasi**.

Xalqni jaholatdan olib chiqadigan va uning kelajagini belgilaydigan kuch – bu shubxasiz uning "ziyoli"laridir. XX asr boshlarida maydonga chiqqan jadidchilik harakati ham shunchaki ma'rifatparvarlik emas, balki millatni uyg'otishga qaratilgan katta xarakat edi. Bu jadidlar maktablar ochishdi, teatr va matbuot orqali xalqning ko'zini ochmoqchi, ularni yuksak kelajakka olib chiqishmoqchi edilar.

Biroq sobiq Sho'rolar tuzumiga erkin va o'zligini anglagan jamiyat kerakmasdi.O'zlarining fikrlariga so'zsiz bo'ysunadigan, o'z tarxini unitgan , kelajagini o'ylamaydigan itaotkor xalq kerak edi. Shu sababli 1937-1938- yillarda millat yo'lboshchilariga qarshi tom manoda "ov" boshlandi. Ular turli uydurma va tuxmatlar bilan qamoqqa olindilar.

Aynan o'zim yashab turgan Toshkent shaxri, jumladan Yakkasaroy ko'chalarida yurar ekanman o'sha yillari shu yerlik o'nlab ma'rifatparvar o'qituvchi, ziyolilar va savdogarlar xam o'z uylaridan olib ketilganini o'ylayman. Ular shunchaki yo'q qilindi. Sabablarsiz. Adolatsiz . Dalillarsiz. Birgina 1937- yilning oktabr oyida bir necha kun ichida O'zbekistonning eng yetuk ziyolilari otib tashlandi. Millatimiz o'zining eng aqilli va fidoyi farzandlaridan ayrilib, tom ma'noda "qanotsiz" qoldi.

III**. Qatag'on qurbonlarining oilalari taqdiri**

Qatog'on fojiasining eng alamli tomoni- bu otilgan va surgun qilingan ziyolilarning ortidan qolgan oilalar tadiridir. Mustabit rejim nafaqat "xalq dushmanlari" ning o'zini , balkim ularning begunoh yaqinlarini xam tizimli ravishda ezdi.

O'sha davrdagi daxshatli qoidalarga ko'ra, qatag'on qurbonlarining ayollariga "Vatan xoyinining oila a'zosi" degan tamg'a bosilgan. Yuzlab o'zbek ayyolari o'z ertlarining o'lik yoki tirik ekanligini bilmay, doimi qo'rqincha yashashgan. Uy joylari tortib olingan. O'zlari esa Qozog'istondagi sovuq va shafqatsiz ALJIR kabi konslagerlarga surgun qilingan.

Go'dak bolalr yetimxonalarga topshirilib, familalari va hatto ismlari xam o'zgartirildi . bundan yagona maqsad – bu bolalar o'z nasl nasabini, ota -onasini, o'z ildizidan uzilishi edi. Shu tariqa butun bir avlod o'zligini bilmay o'sishga majbur bolishdi. "Sotqinning farzandi" degan adolatsiz tamg'a sababli ular o'quv dargohlarida o'qiy olmadilar, ma'asuliyatli ishlarga qabul qilinmadilar. Bu fojianing izi faqat 30- yillar bilan tugamay, keying avlodlarga taqdirida xam qora soya soldi.

*© 2026 International Conference on Multidisciplinary Sciences and Innovations . All Rights Reserved.*

IV. **Xulosa**

Vaqt o'tib ko'plab qatag'on qurbonlarining pok nomlari tiklandi. Adolat qaror topa boshladi. Ayniqsa so'ngi yillarda Oliy sud tomonidan minglab begunoh insonlarni nomlarini oqlanishi juda katta qadam bo'ldi.

Lekin bu shunchaki qog'ozda bo'lib qolmasligi kerak. Biz bugun tinch va erkin yurtda yashayotgan ekanmiz , bu erkinlik qanchalik og'ir to'lovlar evaziga kelganini unitmasligimiz shart.

"Uchirirgan qanotlar"imiz – jadidlarimizning go'yalari va orzulari bugungi ta'limimiz va hayotimiz aks etirilishi kerak. Buning uchun ularga mos avlod bo'lishimiz zarur va shart.

"Yetim qolgan xotira"ni tiklash – bu shunchaki o'tmishni eslash emas , balki kelajakda bunday fojialar qaytarilmasligi uchun zarur bo'lgan manaviy saboqdir. Ularning xotirasini e'zozlash va ular orzu qilgan ma'rifatli jamiyat barpo etish -bugungi yosh avlod sifatida bizning eng birinchi burchimizdir..